MINTAQADA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kadirov San’at Yuldashevich
Urganch Ranch universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.20696471

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalash zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, ta’sir qiluvchi omillarning ishtirori va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalashnini amalga oshirish yuzasidan xulosa bayon etilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности, влияние факторов и особенности трансформации промышленных предприятий в регионе. Также делаются выводы о реализации трансформации промышленных предприятий в регионе.*

Abstract*. This article discusses the need for, existing opportunities, influence of influencing factors and specific features of the transformation of industrial enterprises in the region. Also, a conclusion is made on the implementation of the transformation of industrial enterprises in the region.*

Kalit so‘zlar. *Mintaqa, sanoat, sanoat korxonalari, korxona, transformatsiyalash, salohiyat, omil.*

Ключевые слова. *Регион, промышленность, промышленные предприятия, предприятие, трансформация, потенциал, фактор.*

Key words*. Region, industry, industrial enterprises, enterprise, transformation, potential, factor.*

Kirish. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini transformatsiyalash iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish sharti bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni, sanoat korxonalarini transformatsiyalash mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, innovatsion o‘sishga erishish va jahon bozorida munosib o‘rin egallash uchun zarur bo‘ladi. Bu jarayonda transformatsiya korxonalar faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tashkil etish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga qaratiladi. Shu bois, mintaqalarda sanoat korxonalarini transformatsiyalash, ayniqsa, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda korxonalar an’anaviy ishlab chiqarish usullaridan innovatsion va texnologiyaga asoslangan modellarga tayanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli transformatsiya jarayonida to‘plangan bilim va tajriba korxonaning maqsadlari va rivojlanish yo’lini aniqlash uchun qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi [1]. Unga ko‘ra, sanoat korxonasining raqobatbardosh bo‘lishi raqamli transformatsiyadan foydalanishni talab qiladi. Bu esa strategik menejmentning beqaror tashqi muhitda rivojlanishni boshqarish metodologiyasini

takomillashtirishni taqozo qiladi. Ularga muvofiq, raqamli muhitda qo‘llaniladigan strategiya tamoyillari va usullari yanada takomillashtirilishi va kengaytirilishi lozim. Boshqa yana bir tadqiqotlarda esa model raqamli transformatsiyaga ta’sir qiluvchi omillarni tizimlashtirishga imkon berib, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion yechimlarni moslashtirish uchun uslubiy vositalarni taklif etadi. Unga asosan, tadqiqot natijalari global raqamli transformatsiya sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlaydigan mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish uchun qo‘llaniladi [2]. Boshqa yana bir tadqiqotlarga asosan, sanoatning raqamli transformatsiyasi samaradorligini oshirish omili bo‘lib davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Jumladan, ushbu tadqiqotda mintaqaviy rivojlanish sharoitida sanoatni raqamli o‘zgartirishga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ta’siri masalalari to‘liq o‘rganilmagan [3].

Yana bir tadqiqotlar ko‘rsatishicha, sanoat majmuasining transformatsion o‘zgarishlarga tayyorligini baholashda uslubiy vositalar sanoatning imkoniyatlarini baholash va korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini tahlil qilish statistik tahlil usullarga asoslanadi [4]. Ya’ni, sanoat sektorini texnologik modernizatsiya qilish uchun barqaror muhitni shakllantirishga hissa qo‘shadigan institutsional tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana boshqa xil tadqiqotlarda esa sanoatni transformatsiyalash omillari tadqiq qilinadi. Bu borada sanoatni transformatsiyalash jarayoniga har bir hududning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoitlari, mehnat va boshqa iqtisodiy resurslar salohiyati, ixtisoslashuv, mahalliy bozor kon’yukturasi, investitsiya muhiti, korxonalarni joylashtirish omili sifatida infratuzilma ob’ektlari holati ta’sir qiladi [5]. Yana boshqa bir tadqiqotlarda esa sanoatning sifat jihatidan transformatsiyasi tahlil qilinadi. Unga binoan, ishlab chiqarishning sifat jihatidan transformatsiyasi yoki o‘zgarishi kelajakda mintaqaviy sanoatning o‘sishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [6].

Tahlil va natijalar. Sanoat korxonalarini transformatsiyalash quyidagi ichki va tashqi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- ichki omillar: korxona moliyaviy holati, ishlab chiqarish texnologiyalari darajasi, kadrlar salohiyati va malakasi hamda boshqaruv tizimining samaradorligi.

- tashqi omillar: davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, bozor kon’yunkturasi va raqobat muhiti, investitsiya muhiti va ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi.

Mazkur omillarni hisobga olgan holda transformatsiya jarayonini rejalashtirish yuqori samaradorlikka olib keladi. Bu borada mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalash quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va uning xususiyatlari

№	Asosiy xususiyatlar	Eng muhim jihatlari va qisqacha mazmuni
1	Hududiy ixtisoslashuv	Har bir mintaqa o‘z resurslari va iqtisodiy salohiyatiga mos tarmoqlarda rivojlanadi
2	Resurslarga bog‘liqlik	Transformatsiya mahalliy xom ashyo va mehnat resurslariga asoslanadi
3	Infratuzilma darajasi	Transport, energetika va logistika rivojlanganligi transformatsiya samaradorligini belgilaydi

4	Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasi korxonalar samaradorligini oshiradi
5	Investitsiya muhiti	Xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi
6	Kadrlar salohiyati	Malakali kadrlar mavjudligi transformatsiya jarayonini tezlashtiradi
7	Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash	Imtiyozlar, subsidiyalar va dasturlar orqali rivojlanish rag‘batlantiriladi
8	Ekologik omillar	Ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarga o‘tish talab etiladi

Ushbu jadvalga asosan, mintaqada sanoat korxonalarini transformatsiyalash jarayonining asosiy o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Birinchi navbatda, hududiy ixtisoslashuv va resurslarga bog‘liqlik transformatsiyaning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. Ya’ni, har bir mintaqa o‘z tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlanadi. Infratuzilma darajasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish esa jarayon samaradorligini oshirishda zarur bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya muhiti va davlat qo‘llab-quvvatlashi esa transformatsiyani moliyaviy va institutsional jihatdan ta’minlaydi. Kadrlar salohiyati va ekologik omillar esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Mazkur xususiyatlar o‘zaro bog‘liq holda amal qilib, mintaqada sanoat korxonalarini samarali transformatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shularga asosan, transformatsiya jarayoni quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- raqamli transformatsiya. Ushbu texnologiyalarni (ERP, CRM, IoT, Big Data) joriy qilish orqali ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon berib, xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

- innovatsion rivojlanish. Bu bo‘yicha yangi texnologiyalar va mahsulotlarni joriy qilish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi.

- boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish. Bu borada zamonaviy menejment usullarini joriy qilish korxona faoliyati samaradorligini oshiradi.

- energiya va resurs tejamkorligi. Shu orqali energiya samarador texnologiyalardan foydalanish orqali xarajatlarni kamaytirish va ekologik barqarorlikka erishish mumkin.

- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish. Bu bilan xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirish mumkin.

Shular bilan birgalikda, sanoat korxonalarini transformatsiyalashda investitsiyalarni jalb qilish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar), davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (soliq imtiyozlari va subsidiyalar), industrial zonalar va klasterlarni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini shakllantirish va kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kabi mexanizmlardan samarali foydalanish lozim, deb hisoblaymiz. Mazkur vositalar orqali transformatsiya jarayoni tizimli ravishda amalga oshiriladi. Shular qatori mintaqada sanoat korxonalarini transformatsiyalashda hududiy resurslar, infratuzilma va ixtisoslashuv muhim ahamiyatga ega. Bu holat qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda agrosanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, xom ashyo bazasiga yaqin joylarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va logistika infratuzilmasini takomillashtirishga asoslanadi. Buning uchun har bir hudud uchun alohida strategiya ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalash iqtisodiy rivojlantirish bevosita raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalarni qo‘llash va boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Unga asosan, tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgan transformatsiya jarayoni hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va jahon bozorida munosib o‘rin egallash imkonini beradi. Chunki, mintaqada sanoat korxonalari faoliyatini transformatsiyalash zaruriyati zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, kuchayib borayotgan raqobat va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa an’anaviy ishlab chiqarish usullari samaradorlikni ta’minlab bermaydi, shuning uchun korxonalarni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarga o‘tish talab etiladi. Shunday ekan, sanoat korxonalarini transformatsiyalash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va raqobatbardoshlik darajasini yuksaltirish kabi natijalarni ta’minlaydi. Bu orqali korxonalar moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Glukhov V.V., Gileva T.A., Galimova M.P., Karimov D., Malevskaia-Malevich E.D. (2023). Industrial Enterprise Digital Transformation Navigator: Stages and Tools for Strategic Change. In: Ilin I., Petrova M.M., Kudryavtseva T. (eds) Digital Transformation on Manufacturing, Infrastructure & Service. DTMIS 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 684. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-32719-3_69
2. Гнатышина Е.И. Инновационно-институциональная среда цифровой трансформации регионального промышленного комплекса. // Поволжский государственный университет сервиса, Выпуск: Том16, №2, 2025. - с. 86-99. https://journals.ssau.ru/eco/article/view/28925
3. Anna T., Marina I., Grigory K., Evgenii T. Model of State Support for The Digital Transformation of The Manufacturing Industry in Russian Regions. // International Journal of Technology, Volume13(7), 2022. - pp. 1538-1547. https://ijtech.eng.ui.ac.id/article/view/6219
4. Васильева З.А. Особенности цифровой трансформации промышленного комплекса региона. // Экономика, предпринимательство и право, 2023, Т.13, №10. - С. 4037-4054. - DOI 10.18334/epp.13.10.119315. - EDN IIZVBK. https://1economic.ru/lib/119315
5. Abulkasimov X.P., Murodxo‘jayeva F.M. Namangan viloyati sanoatini transformatsiyalash jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari. // Iqtisod va moliya, 2023, 1 (161) - 4 b. https://cyberleninka.ru/article/n/namangan-viloyati-sanoatini-transformatsiyalash-zharayonlarining-minta-aviy-hususiyatlari
6. Якубова Э.Т. Пространственные факторы качественной трансформации промышленности Узбекистана. // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество, 2023. - с. 368. https://cyberleninka.ru/article/n/prostranstvennye-faktory-kachestvennoy-transformatsii-industrialnogo-sektora-uzbekistana